

TA'LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASH

O.F.Hamroyeva

FDU o'qituvchisi

Risqaliyeva Farog'at Ixtiyor qizi

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonidagi integratsiyalash va unga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *“tabiat+inson”, “Differentsiatsiya - frantsuzcha (diffe'rentiofion lotincha differentia - farq har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish, «Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan.*

Tashqi birikish, metodologiya, kontenental moslashuv, qonuniyat, noklassik, ijtimoiylashuv, individ, ideal, dunyoqarash, toifa

1-masala. Ta'lim jarayonida insonning intellektual rivojlanish haqidagi ta'lim falsafasi XXI asr boshida ta'lim falsafasida shunday ustuvor yo'nalish vujudga keldiki, unda insonni yaxlit intellektual rivojlantirish masalasi vazifa qilib qoyilmoqda. Lekin hozirgacha maktab ta'limida amalada bo'lgan predmetli o'qitish shakli ushbu vazifani amalga oshirishga imkon bermay keldi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda fanlarni integratsiyalab o'qitish haqidagi takliflar faqat tashqi birikish harakteriga ega bo'lib qolmoqda. Aslida integratsiyali ta'limni ichki mantiqiy bog'lik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib amalga oshirish zarur. Shuningdek, hozir vujudga kelayotgan integratsiyali fanlar mazmunida turli falsafiy oqimlarga aloqador g'oyalarning yagona nuqtaga birlashuv ehtimoli tug'ilmoqda. Chunki, endilikda ta'lim falsafasida chegaradosh fanlarning tabiiy moslashuvigina emas, balki kichik kontinental (bir guruhga kiruvchi fanlarning boshqa guruh fanlari bilan) moslasahuvi ham o'zlashtirilmoqda.

Rus pedagogik olimlari T. Kun, V.S. Styopinlarning tatqiqotlarida falsafa, tabiat va ma'daniyat haqidagi fanlar integratsiyalash sinab ko'rildi. Ular fizika, kibernetika ilmlarini anorganik olamdaki hodisalarni tushuntirishga biologiya, ximiya muammolarni hal etishga tadbiiq etishni taklif etmoqdalar.

Nems olimi Nils Borning kashfiyoti (qo'shimchalik prinsipi) yangi fanlarning rivojlanishiga asos soldi. Hozirgi zamon falsafasida olg'a surilayotgan va integratsiyaning ta'lim zaminini tashkil etuvchi element tarkibiga dunyo qarash

universiyali kiradi. Dunyoqarash univeriyasi fan mazmunini anglash, tushunish moddiy olamni ko`ra bilish imkonini yaratadi.

Ma`lumki, komil shaxsning ta`lim-tarbiya jarayonida ijtimoiylashuviga erishish bugungi kunda pedagogika nazariyasi fanining yetakchi muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda individ uchun dunyoqarash universiyalarini o`zlashtirishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin. Dunyoqarash universiyalari jumlashiga dunyoga umumiy ta`rif beruvchi zaruriy tushunchalar, kategoriyalar kiradi. Ular moddiy olamdagi tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga nisbatan universal ma`noda qo`llanish imkoniga ega. Masalan, kenglik, vaqt, harakat, miqdor, sifat, sabab, oqibat, zaruriyat, tasodif, shaxs, inson, jamiyat, men, boshqalar, go`zallik, ong, ishonch, adolat, tenglik, haqiqat.

Diferensiyalangan ta`limda universiyalar uning barcha qonuniyatlarini qamrab oladi. Universiyalarning o`zlashtirilishi boshqa fanlarning o`zlashtirilishiga ham asos bo`ladi.

Yana ma`daniyat universiyalari ham borki, ular turli ijtimoiy ma`daniy yo`nalishlarda asos bo`ladi. Bunday ta`lim falsafasi moddiy olamni ma`naviy o`zlashtirishiga yordam beradi. Uni adabiyot, san`at, tarix fanlarini integratsiyalab o`qitish vositasida amalga oshirish mumkin. Kundalik fikrlash, ma`naviy olamni anglashda falsafiy ma`naviyat universiyalari yordam beradi. Falsafa maydonida dunyoni umumiy ta`riflovchi tushunchalar olamni anglash ob`yektiga aylanadi. Ular asosida ma`daniyat universiyalardan foydalanib, fikriy tajribalar o`tkazish imkoniyati tug`iladi, fikrlashning ideal yo`nalishlari ham belgilab olinadi.

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida fanlar aro bog`lanish asosida ta`limni integratsiyalash yo`lidagi izlanishlar davom etmoqda. Bu vazifa g`oyat murakkab va ayni paytda katta samara berishi ham mumkin. Shuning uchun integratsiyani navbatdagi shovshulik kompaniya deb tushunmaslik kerak.

2-masala. Fanni o`rganishdagi ilg`or g`oyalar, tamoyillar va vazifalar.

Hozirgi paytda integratsiyali pedagogika fanini o`rganish maslasida turlicha qarashlar mavjud ular orasida eng samarali yo`l sifatida o`quvchilarga integratsiyali fanlar asosida “tabiat+inson” tizimidagi bilimlarni sindirishga imkon beruvchi tizim deb tushuntirilmoqda. Chunki XXI asr boshida jamiyat hayotida shunday vaziyat vujudga keladiki, endi yer yuzida yashiyotgan har bir inson ma`naviy – ekologik tushunchalarni o`zlashtirib olgan bo`lishi zarur. Hozirgacha tabiat boyliklaridan rejasiz foydalanish, uni g`orat qilish kelajakda inson hayotini hatolarga qo`yishi mumkinligi aniq bo`lib qoldi. Shuning uchun bugungi kunda ekologik ma`naviyatni tarbiyalash integratsiyali kurslarni bosh vazifasi bo`lishi kerak deb hisoblanmoqda. Bunday g`oya yoshlarga yer yuzida birdamlik, yagona maqsad uchun kurash, inson

va tabiat uzviyligi, inson va tabiat hayotining gallaktika tizimi qonuniyatlari bilan aloqadorligini tushuntirishni ko`zda tutadi. Integratsiyali pedagogika fanini o`rganishni quyidagi tamoyillarga amal qilinadi.

1. Ta`lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish.

2. Tabiatshunoslikka doir ilmlarni "tabiat+inson" tizimida integratsiyalash.

3. O`quvchi shaxsi shakllanishini tabiiy bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish;

4. O`quvchilarda fikrlash yo`nalishlarida tabiat haqidagi bilimlar ta`sirining ustivorligi;

5. Kelgusida ilmiy izlasnishiga mos keluvchi didaktik materiallarni turli sohalardan izlash;

Fanni o`rganish borasida vazifalar jumlasiga quyidagilar kiradi.

1. O`quvchilarda tizimli fikrlashning mo`ljali asosini shakllantirish;

2. Hayotning vujudga kelishida tabiatning birlamchi ekanligini qonuniy deb tushunish;

3. O`quvchilarni tabiiy o`zgarishlarini kuzatish vositasida evolyutsion qonuniyatlarini anglashga o`rgatish;

4. Tabiiy muammolarni, mustaqil aqliy operatsiyalar vositasida hal qilish mumkinligini tushuntirish va ularni hal qilish yo`llarni topish qobiliyatini tarbiyalash;

5. Tabiat go`zlliklarini anglash, ularni asrash ekologik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Sof ta`limiy yo`nalishdagi bunday qarashlar umum ta`lim fanlarini o`rganishda hozirgacha tarkib topgan mantiqiy xulosalardan voz kechishiga olib keladi. An`anadagidek, induksiyadan emas, balki ishni kutilmaganda deduksiyadan ham boshlash mumkinligini ko`rsatadi. Demak, tushunchalar shakllanishining klassik tizimidan integratsiyali umumiy tushunchalarni ishlatish darajasiga ham o`tiladi.

3-masala. Integratsiyali ta`lim jarayonidagi kuzatish va xulosalar

Respublikamiz umumta`lim makatablarida pedagogik sinov maqsadida amalga oshirilgan tajribalarda integratsiyali ta`lim ijobiy natijalarni ko`rsatdi. O`quv fanlarini integratsiyali ta`lim asosida o`qitishda predmentni o`qitishga nisbatan o`zlashtirish samarasi oshdi va muddati qisqardi. Pedagogik sinovlarda o`qitish o`zlashtirishni tezlashtirishni maqsad qilib qo`yilmagan edi. Shuncha qaramasdan tabiatshunoslik, mehnat, rasm o`qish predmentlari elementlari majmuasidan tuzilgan intergatsiyali ta`lim kursi maskur fanlarning barchasiga doir bilimlarni o`zlashtirishga imkon bera oldi. Oqibatda o`qitishda pozitiv (antonimi -negativ) natijalariga erishildi. Pozitiv (ijobiy) natijalar o`quvchi dunyoqarashidagi quyidagi xususiyatlarda namoyon bo`ladi:

A) Bola moddiy olam haqidagi zamonaviy ilmiy tasavvurlarni tog`ri talqin qiladi va anglaydi;

B) O`quvchi olamning ko`p olchamli manzarasini ko`rish, gorizontlarini tasavvur qilishiga erishadi.

V) O`quvchi o`zi uchun dunyoni qaytadan kashf qiladi; Shuningdek, integratsiali ta`limni amalga oshirishda o`qituvchi+o`quvchi muloqotining yangi metodik shakllarini izlab topish zaruratga aylanadi. Turli ixtisoslikdagi pedagoglar faoliyatini birlashtirishni taqozo etadi. Ayni paytda integratsiali ta`limda o`quvchilar zerikishini oldi olinadi, toliqish yuz bermaydi. Ta`lim samarasi yuqori bo`ladi. O`qitishning yangi falsafasida pedagogik faoliyatga asos bo`ladi.

Shuni takidlash zarurki, hozirgi paytda integratsiyali ta`limga qarshi fikrlar ham mavjud. Ayrim pedagogik olimlar: "Integratsiyali ta`lim" o`quv fanlarini mehanik birikishiga olib keladi deb ta`kidlamoqdalar. To`g`ri bizningcha yuzaki qaraganda shunday havf tug`ilishi mumkin. Lekin ishni ilmiy asosda, ta`lim falsafasi qonuniyatlariga tayanib amalga oshirilsa bunday bo`lmaydi.

Maktablarda ham integratsiya kurslarini o`qitish ayrim muammolarni tug`dirishi mumkin. Jumladan o`quv dasturlarini tanlash, integrasiyaga kursning maqsad va vazifalarini anglash o`qituvchi malakasini oshirish, metod birlashmalar faoliyatini yo`lga qo`yish, pedagog - kadrlar tayyorlash yo`lidagi muammoni hal etishga to`sqinlik qilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o`quv rejalari va dasturlariga o`tish davrida jamiyat va atrof-muhit o`rtasndagi aloqalarni uyg`unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o`rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang`ich sinflarda o`rgataladi. Shuning uchun iqtisodiy ta`limning natijasi maktabgacha ta`lim muassasasita`limining birinchi bosqichiga bog`liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktabgacha ta`lim muassasasibolalarining bilish faoliyatlari cheklaiganlgi haqida ilgarngi tushunchalarni ko`rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang`ich iqtisodiy ta`limning barcha tarkibiy qismlarini o`zgartirish va yangilashga asos yaratadi.

Boshlangich sinf bolalarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

XIX-XX asrlar oralig`ida pedagogikada kichik maktabgacha ta`lim muassasasibolalarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo`lgan. Bu fikr A.Ya.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov

komlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabgacha ta‘lim muassasasiga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalariing ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Ya. Komenskiy, D.Lokk, I. Gsrbart, M. Pestalotstsi, K.Ushinskny va boshqalar), didaktikalarning (I.D.Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina na boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Yu.A. Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvo», V.G.Goreskiy, N. N.Svetlovskaya. Yu.M.Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang‘ich ta‘limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangan. Bu muammolar o‘quv fanlarini integratsiyalashga o‘tishning yaqin rivojlanish zonasidir.

(T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytal, G.V.Baltyukova, N.Ya.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R.G.Matyushova),

MTMda integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama -qarshiliklar ko‘p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligann ko‘rib chiqaylik.

«Intergratsiya» so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan.

Ikkita tushunchaga egamiz:

1.Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya - frantsuzcha (diffe'rentiofion lotincha differentia - farq har xillik, ya'ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta‘lim mazmunini intergratsiyalash-dunyo tendentsiyasi (g‘oya, fikr, intilish), Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning ob‘ektiv yaxlitligili aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). Integratsiya ilgari bo‘lishyan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibta tushadi, shu tizim qismlarniig ishlashi va o‘rganish ob‘ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktabgacha ta‘lim muassasasita‘limida qo‘llash mumkin? Zamonzviy didaktik va metodikada ta‘kidlanishicha, bolalarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari

asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari. tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruktsiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich. tabiat haqidagi elementlar bilimlarni bkrlashtiradi; oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilam bog'liq bo'lgan talmmning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasita'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Yu.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari) olinishi mumkin. Bu fikrlarniig mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Yu.A.Samarin o'xshatishlarning

quyidagi turlarni ajratadi:

lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegashli bo'lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigai darajasiga birlashgiris xususiyatiga qarab tasniflaydi).

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liklik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktabgacha ta'lim muassasasiyoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng solda tizimli tasavvurlardmr. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng odliy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi.

Xulosa. Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtiradi faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar bolalarning butun bir fanlar bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardai keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlari aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularin bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqliklarni aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHLTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO 'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702.
5. Сойибназаров, А. И. (2023). МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ УЧУН ОНЛАЙН ХИЗМАТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ВАРҚАРОРЛИК ВА YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 3(1), 79-81.
6. Сойибназаров, А. (2023, November). ФОРМИРОВАНИЕ НОВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ И РЕШЕНИЕ ЛОГИЧЕСКИХ ПО ФИЗИКЕ. In *Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 11, pp. 57-65)*.
7. Soyibnazarov, A. (2023, November). UMUMTA'LIM MAKTABLARDA FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
8. Soyibnazarov, A. (2023, November). FIZIKA FANINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI VA AHAMIYATI. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
9. Soyibnazarov, A. (2023). O 'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (3), 35-35.